

Ma'ruzachi: **Egamberdiyev Ramish Rabbimovich,**
q.x.f.n.

“Tuproqshunoslik va dehqonchilik”
kafedrası dotsenti

Ўқув машғулотида таълим технологияси модели

Мавзу 1

КИРИШ. О'ЗБЕКИСТОН ТУПРОҚЛАРИ ВА YER RESURSLARI.

Вақт: 80 минут	Талабалар сони:30 _____
Ўқув машғулотининг шакли ва тури	Маъруза (<u>ахборотли</u>)
Маъруза режаси / ўқув машғулотининг тузилиши	<ol style="list-style-type: none">1. Kirish.2. O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi.3. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar.4. Yer fondi tarkibining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi.
Ўқув машғулотининг мақсади: O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi talabalarga tushuntiriladi.	
Педагогик вазифалар: Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar.Yer fondi tarkibining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi kabi bilimlar beriladi	Ўқув фаолияти натижалари: O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar. Yer fondi tarkibining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi.
Таълим усуллари	Маъруза, савол - жавоб, аклий хужум ва бошка.
Таълим шакли	Оммавий
Таълим воситалари	Маъруза матини,доска,бор,ведиопректир ва техника воситалари
Таълим бериш шароити	Маълум техника воситалари билан жиҳозланган хоналар.
Мониторинг ва баҳолаш	Оғзаки суров тезкор суров ва бошкалар.


1-мавзу. Ўқув машғулоти нинг технологик харитаси

Иш босқичлари ва вақти	Фаолият мазмуни	
	Таълим берувчи	Таълим олувчилар
1-босқич. Ўқув машғулоти га кириш (10 дақ)	<p>1.1. Мавзунинг номи, мақсади ва кутилаётган натижалар етказилади.</p> <p>1.2. Савол-жавоб усули ёрдамида ушбу мавзуга оид маълумотлар айтилади. Мустақил иш учун адабиётлар руйхати тўлиқ берилади.</p> <p>1.3. Ўқув машғулоти да баҳоланиш тизими низомлари талабаларга тушунтириб берилади.</p>	<p>Тинглайдилар.</p> <p>Ёзиб оладилар</p> <p>Аниқлантирувчи саволлар берадилар</p>
2-босқич. Асосий (60 дақ)	<p>2.1. Маъруза режаси ва тузилишига мувофиқ таълим жараёни бўйича, ташкил этиш ҳаракатлари тартибли баён этилади.</p> <p>2.2. Слайд ва расмлар ёрдамида (илова 2) мавзуни асосий назарий ҳолатлари баён қилинади.</p>	<p>Тинглайдилар.</p> <p>Жадвал ва чизмаларни дафтарга кўчириб оладилар, савол Берадилар</p>
3-босқич. Якуний (10 дақ)	<p>3.1. Мавзу якунланади. Қилинган ишларни келгусида фаолиятларида аҳамиятга эга эканлиги такидланади.</p> <p>3.2. Гуруҳ ишини баҳолайди, ўқув машғулотларини мақсадга эришилган даражаси таҳлил қилинади.</p> <p>3.3. Мустақил иш учун топшириқ берилади ва унинг баҳолаш мезонларини етказди.</p>	<p>Саволлар берадилар.</p> <p>Топшириқ ёзадилар</p>

1-Mavzu: O'ZBEKISTON TUPROQLARI VA YER RESURSLAR

- 1. Kirish.
- 2. O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi.
- 3. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar.
- 4. Yer fondi tarkibining yer turlari bo'yicha taqsimlanish

Dunyo tuproqlarining qariyb 65 foizi degradatsiyaga uchragan.
Buning 85 foizi tuproq eroziyasi natijasida yuzaga keladi.



Har yili qishloq xo'jaligi 36 milliard tonnadan ortiq unumdor tuproqni yo'qotadi.

Рис. 2. Деградация почв по континентам (по данным UNEP)

Деградация сўзи поляк тилидан олинган бўлиб, (Degradaya-лотин тилида эса degradation) “секин-асталик билан камайиш” ва “пастга кетиш” деган маънони англатади.



DEGRADATSIYA KENG TUSHUNCHA BO‘LIB, QUYIDAGILARGA ISHORA QILISHI MUMKIN:

Biodegradatsiya - organik moddalar mikroorganizmlar ishtirokida parchalanadigan jarayonlar;

Kimyoviy parchalanish - murakkab molekulalarning parchalanib oddiyroq molekulalarni hosil qilishi;

Atrof muhitning degredatsiyasi (ekologiyada) - ekotizimlarning yo‘q qilinishi;

Insonning (degredatsiyasi) tanazzulga uchrashi - insonning intellektual qobiliyatining pasayishi, uni dangasalik, rivojlanish istagi yo‘qligi ilgari suradi.

Urbanizatsiya degradatsiyasi - bir shahar yoki shahar hududining kamayishi.

Tuproq degradatsiyasi — bu tuproq funksiyalarining o‘zgarishiga, uning xususiyatlarining miqdoriy va sifat jihatidan yomonlashishiga, unumdorlikning asta-sekin yomonlashishiga va yo‘qolishiga olib keladigan jarayonlar majmui.

Quyidagilar tuproq degradatsiyasining eng muhim turlari:

- texnologik (uzoq muddatli foydalanish natijasida)
- tuproq eroziyasi
- sho‘rlanish
- botqoqlanish
- tuproqning ifloslanishi
- cho‘llanish

Silvia Pressel shunday deydi: “Tuproq bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan millionlab tirik organizmlarga to‘la. Bu organizmlar tuproqqa, uning shakllanishi, tuzilishi va hosildorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.



Sayyora yerining 40% gacha degradatsiyaga uchragan, insoniyatning yarmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, global YaIMning qariyb yarmiga tahdid soladi (44 trillion AQSh dollari)

Agar ishlar odatdagidek 2050 yilgacha davom etsa, Janubiy Amerikaning deyarli kattaligidagi hududning qo'shimcha degradatsiyasini prognoz qiladi.


Davlatlarning 2030 yilga kelib 1 milliard gektar degradatsiyaga uchragan maydonni tiklash bo'yicha joriy va'dasi uchun bu o'n yillikda 1,6 trillion AQSh dollari kerak bo'ladi, bu esa qazib olinadigan yoqilg'i va qishloq xo'jaligi subsidiyalari uchun yillik 700 milliard dollarning bir qismidir.

Tez iqlim va boshqa sayyoraviy o'zgarishlar sharoitida oziq-ovqat narxlari oshib borayotgani sababli, erni saqlash, tiklash va barqaror foydalanish uchun "inqiroz poydevori" kerak edi.

■ Above-replacement ■ Below-replacement



Аҳоли доимий
равишда камайиб
бораётган (яшил)
ва ўсиб бораётган
(қизил) мамлакатлар.



Source: United Nations 2022 Revision of World Population Prospects and national statistics agencies.

Dunyo yalpi ichki mahsulotining yarmi tabiatga bog'liq. Tiklanish choralariga sarmoya qilingan har bir dollar 30 dollargacha iqtisodiy foyda keltiradi.



Kamida 2 milliard kishi, ayniqsa, kambag'al va qishloq aholisini hayoti qishloq xo'jaligiga bog'liq.



Ekotizim degradatsiyasi allaqachon kamida 3,2 milliard odamning farovonligiga ta'sir qilmoqda – bu dunyo aholisining 40 foizi.



1970 yildan beri tabiiy chuchuk suv ekotizimlarining taxminan 30 foizi yo'q bo'lib ketdi.



Yerning degradatsiyasi global oziq-ovqat hosildorligini 12 foizga kamaytirishi mumkin, bu esa 2040 yilga borib oziq-ovqat narxining 30 foizga oshishiga olib keladi.





Ko'chalardagi daraxtlar yozgi maksimal havo haroratini taxminan 0,5-2°S ga pasaytiradi, kamida 68 million kishiga foyda keltiradi.



Yer va tuproqni bir-biridan farqi bormi?

22 апрель куни – Халқаро Ер куни,

5 декабрь куни эса – Халқаро Тупроқлар куни

Yer – barcha o'simlik va hayvon organizmlari bilan birgalikda sayyoramizning mineral yumshoq yuzasi. Biologik o'zini o'zi boshqarish tizimi. **(5-80 km)**

Tuproq – o'simliklar, mikroorganizmlar, hayvonlar, zamburig'lar+tuproq biotizimlari qoldiqlari bo'lgan yerning unumdor qismi. **(bir necha mm dan – 3 m)**

Substrat – inson tomonidan maxsus yaratilgan ekish uchun sun'iy muhit.

ДОИМИЙ АҲОЛИ СОНИНИНГ ЯШАШ ЖОЙИ БЎЙИЧА ТАҚСИМЛАНИШИ

(2023 йил 1 апрель ҳолатига)



■ Шаҳар



18,5
млн. киши



■ Қишлоқ



17,7
млн. киши

Ўзбекистон Республикаси Амударё ва Сирдарё оралиғида жойлашган бўлиб, умумий майдони 448,9 минг км.кв.ни ташкил этади. Республика ҳудуди шарқдан ғарбгача 1425 км ни, шимолдан жанубгача эса 930 км ни ташкил этади.

1425 км




Ўзбекистон Давлат чегарасининг Афғонистон билан узунлиги — 143 км., Қозоғистон — 2.356,31 км., Қирғизистон — 1.476,12 км., Тожикистон — 1.283,2 км. ва Туркманистон билан — 1.831,49 км.




O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlarining noqishloq xo'jaligi maqsadlariga o'tkazilishi to'xtamayotganligi oqibatida ushbu yerlar so'ngi 20 yil ichida **64** foizga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlar esa **24** foizga kamayib ketdi. Bundan tashqari sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yer maydoni 2,12 marta kamaygan bo'lsa, aholi punktlarining yerlari 1,12, o'rmon yerlari 4,45, suv fondi yerlari 1,35, zaxira yerlar 1,49 martadan ortiqroq oshdi.

Yurtimizda hozirgi vaqtda 60% dan ortiq yer maydonlaridan yer solig'i undirilmaydi, yer solig'i yuzasidan tushumlar 2019 yilning sakkiz oyida mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining atigi 0,28% ini tashkil qilsa, byudjet tushumlarining esa 1,20% dan oshmayapti.




2020 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi yer fondining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi



Ўзбекистон Республикасидаги жами фойдаланиладиган ерлар майдони. 2020 yil (ming/ga)

/р	Худудлар номи	Умумий ер майдони		Экин ерлар		Кўп йиллик дарахтзорлар		Бўз ерлар		Пичанзор ва яйловлар		Жами қишлоқ хўжалик ерлари		Томор қа ерлари		Ўрмо нзор-лар		Боғдор чи-лик, узумчилик ва сабзавотчи-лик уюшма-ларининг ерлари		Бугазорлар	Бошқа ерлар
		жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани		
1	Қорақалпоғистон Республикаси	16656,1	514,6	418,5	418,5	8	8	11,2	11,2	5257,4	36,6	5695,1	474,3	52,3	39,3	1072,8	0,9	0,1	0,1	107,1	9728,7
2	Андижон	430,3	274,2	200,6	200,6	31,1	31,1	2,6	0,5	21,1	0,9	255,4	233,1	50,3	36,9	3,9	3,9	0,3	0,3		120,4
3	Бухоро	4183,1	274,9	200,1	200,1	20,8	20,8	7	7	2558,1		2786	227,9	58,2	45,1	334,5	1,7	0,2	0,2	45,4	958,8
4	Жиззах	2117,9	303,9	489,3	259,9	22,3	17,4	11,3	1,7	739,1		1262	279	34,5	20,4	163,7	4,5	0,1		0,1	657,5
5	Қашқадарё	2856,8	514,1	675,7	417,3	39	36,7	21,9	4,6	1406,8	0,1	2143,4	458,7	80,1	49,1	164,3	6	0,3	0,3		468,7
6	Навоий	10948,1	126,4	122,9	92	10,3	9,6	6,8	6,7	8762,3		8902,3	108,3	25,6	16,3	1270,8	1,5	0,7	0,3		748,7
7	Наманган	718,1	290	188,2	188,2	46,4	46,4	2,5	2,5	150,8		387,9	237,1	58,7	48,3	23,4	4,5	0,1	0,1		248
8	Самарқанд	1677,3	379,2	429	246,9	68,1	63,4	5,2		797,1		1299,4	310,3	86,5	62,6	13	6	0,7	0,3		277,7
9	Сурхондарё	2009,9	325,1	278,1	238,6	34,2	32,8	0,3		826,5		1139,1	271,4	63,2	50,4	233,4	3,3			0,1	574,1
10	Сирдарё	427,6	286,3	249,2	249,2	7,4	7,4	10,3	10,3	20,5		287,4	266,9	19,2	15,2	4,1	4,1	0,1	0,1		116,8
11	Тошкент	1524,9	400,3	329	295,7	53,6	44,3	0,8	0,4	445,6	1,4	829	341,8	64,5	52,6	81,7	2,4	3,6	3,5	2,3	543,8
12	Фарғона	700,5	368,5	247,6	247,6	49,4	49,4			23,4	3,9	320,4	300,9	71,9	52,8	14,6	13,9	0,9	0,9		292,7
13	Хоразм	608,2	267,7	205,3	205,3	13,2	13,2	3,8	3,8	109,3		331,6	222,3	53,9	45,1	53,7	0,2	0,1	0,1		168,9
14	Тошкент ш.	33,6	3,8											7,1	3,8						26,5
	Жами:	44892,4	4329	4033,5	3259,9	403,8	380,5	83,7	48,7	21118	42,9	25639	3732	726	537,9	3433,9	52,9	7,2	6,2	155	14931,3

Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри бўйича суғориладиган қишлоқ хўжалик ер турларининг тақсимланиши. (% ҳисобида)



O'zbekiston Respublikasi hududining
46,25 foizi qishloq xo'jaligiga
mo'ljallangan yerlar

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun
mo'ljallangan yerlar **qishloq xo'jaligi
yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik
yo'llari, kommunikatsiyalar,
o'rmonlar, yopiq suv havzalari,
binolar, imoratlar va inshootlar**
egallagan yerlarga ajraladi.

Shuningdek, haydaladigan yerlar,
pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar,
ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar,
tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt
ko'chatzorlari, mevazorlar va
boshqalar) egallagan yerlar qishloq
xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.



Respublikada qishloq xo‘jaligi korxonalarini va tashkilotlarining soni fermer xo‘jaliklari bilan birgalikda olganda, 2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra **103 605 ta bo‘lib**, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni **20 761,6** ming gektarni, shu jumladan qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni **16025,6** ming gektarni, shundan **3694,8** ming gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi.



Республика вилоятлари бўйича лалми экин ер майдонларининг тақсимланиши (минг га ҳисобида)


Т/р	Вилоятларнинг номи	Жами лалми экин ерлар майдони
1	Жиззах	229,4
2	Қашқадарё	258,4
3	Навоий	30,9
4	Самарқанд	182,1
5	Сурхондарё	39,5
6	Тошкент	33,3
Жами:		773,6



O‘zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi 2020 yil (ming/ga)

T/p	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, suvoriладиган yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xўjaligiga mўljalланган yerlar	20761,6	46,25	4210,1	9,38
2	Aholi punktlarining yerlari	223,4	0,50	52,7	0,12
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarга mўljalланган yerlar	867,4	1,93	12,7	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreacia maqsadlariga mўljalланган yerlar	731,7	1,63	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga mo'lik yerlar	14,6	0,03		
6	Yermon fondi yerlari	12020,8	26,78	45,9	0,10
7	Suv fondi yerlari	835,2	1,86	4,7	0,01
8	Zaxira yerlar	9437,7	21,02	2,3	0,005
	Jami yerlar:	44892,4	100	4329	9,64

2020 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



O'zbekiston Respublikasi yer resurslari

1. Аҳоли пунктларининг ерлари.
2. Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар.
3. Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш, рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар.
4. Тарихий-маданий аҳамиятга молик ерлар
5. Ўрмон фонди ерлари.
6. Сув фонди ерлари
7. Заҳира ерлар.
8. Қишлоқ хўжалик ерлари.

Aholi punktlari yerlarining 2020 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni 223,4 ming gektarni yoki jami yerlarning 0,5 foizini tashkil qiladi.

Aholi punkti odamlar doimiy yashaydigan joy boʻlib,
shahar yoki qishloq shaklida boʻlishi mumkin.



Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarning 2020 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni 867,4 ming gektar yoki respublika yer fondining 1,93 foizini tashkil qiladi.



Ўзбекистон Республикасида
қуйидаги қўриқхоналар мавжуд:

- Чотқол;
- Бадай-тўқай;
- Ҳисор;
- Зомин;
- Зарафшон;
- Қизилқум;
- Нурота;
- Сурхон;
- Китоб.



Tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlarning 2020 yil 1 yanvar holatiga umumiy maydoni 731,7 ming gektarni tashkil qiladi. 1,63%.




Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning 2020 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni 14,6 ming gektarni tashkil qiladi. 0,03%





O‘rmon fondi yerlarining 2020 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni 12020,8 ming gektarni yoki jami yer maydonining 26,78 foizini tashkil qiladi.





Тошкент (9,8
фоиз)

Самарқанд
(18,2 фоиз)

Наманган
(15,7 фоиз)







Сирдарё вилояти
(2,6 фоиз)


Қорақалпоғистон
Республикасига
(1,8 % фоиз)

Кўп йиллик
дарахтзорлар.
2012 йил

Андижон (12,3 фоиз)

Фарғона (15,3
фоиз)





Тошкент
(11,6 фоиз)

Самарқанд
(16,7 фоиз)

Наманган
(12,2 фоиз)

Сирдарё вилояти
(1,9 фоиз)

Қорақалпоғистон
Республикасига
(2,1 % фоиз)

Кўп йиллик
дарахтзорлар.
2020 йил

Андижон (8,2 фоиз)


Фарғона
(13 фоиз)

O'rmonlar dunyodagi eng yirik shaharlarning uchdan bir qismini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

Bundan tashqari, ular amfibiyalarning 80 %, qushlarning 75 % va sutemizuvchilarning 68 % ini qo'llab-quvvatlaydi va asraydi.



O‘rmon fondi
yerlarining
Qoraqalpog‘iston
Respublikasi, viloyatlar
va Toshkent shahri
bo‘yicha taqsimlanishi.
(% hisobida)



Suv fondi yerlari 2020 yil 1 yanvar holatiga jami 835,2 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 1,86 foizini tashkil qiladi.



2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra **zaxira yerlarning** umumiy yer maydoni 9437,7 ming gektar yoki umumiy yer maydonining 21,02 foizini tashkil etadi.



Zaxira yerlarga egalik qilish, foydalanish hamda ijara maqsadida, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan hamda boshqa yer toifalarida hisobga olinmagan barcha yerlar kiradi.

- Yer fondi tarkibini yer turlari bo'yicha taqsimlanishi
Қишлоқ хўжалик ерлари,
экин ерлар,
кўп йиллик дарахтзорлар (боғзорлар, токзорлар, тутзорлар,
мевали дарахт кўчатзорлари ва мевазорлар),
бўз ерлар,
пичанзор ва яйловлар



Қишлоқ хўжалик ерлари – қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш мақсадида узлуксиз фойдаланиладиган ер турларидир.



Экин ерлари - бу ерларга қишлоқ хўжалик экин турлари (шу жумладан кўп йиллик ўтлар) экиладиган ерлар киради. Экин ерлар икки турга бўлинади:

1. Суғориладиган.
2. Лалми ерлар.



2012 йил 1 январь ҳолатига кўра бўз ерларнинг
умумий ер майдони 80,4 минг гектар

лалмикор
ерлари 33,4
минг гектарни



суғориладиган
ерлари 47,0 минг

2020 йил 1 январь ҳолатига бўз ерларнинг
умумий ер майдони 83,7 минг гектар

лалмикор ерлари
35 минг гектарни



суғориладиган
ерлари 48,0 минг

Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар бўйича пичанзор ҳамда яйловларнинг тақсимланиши (2020 йил)

Т/р	Республика, вилоятларнинг номи	Жами пичанзор ва яйловлар	Шундан суғориладигани
1	Қорақалпоғистон Республикаси	5257,4	36,6
2	Андижон	21,1	0,9
3	Бухоро	2558,1	
4	Жиззах	739,1	
5	Қашқадарё	1406,8	0,1
6	Навоий	8762,3	
7	Наманган	150,8	
8	Самарқанд	797,1	
9	Сурхондарё	826,5	
10	Сирдарё	20,5	
11	Тошкент	445,6	1,4
12	Фарғона	23,4	3,9
13	Хоразм	109,3	
	Жами:	21118	42,9

Qishloq xo‘jaligi vazirligiga yer degradatsiyasiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha:

a) quyidagi vakolatlar beriladi:

yer degradatsiyasi jarayonlari bilan kurashish dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar (O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi, Hidrometeorologiya xizmati markazi, Fanlar Akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Yirik sanoat korxonalari) faoliyatini muvofiqlashtirish;

yer degradatsiyasi jarayonlari bilan kurashish siyosatini belgilash, davlat dasturlari va istiqbolga mo‘ljallangan strategiyalarni ishlab chiqish;

yagona elektron resurs (ma’lumotlar bazasi) doirasida vazirlik va idoralarning yer degradatsiyasi, cho‘llanish va qurg‘oqchilikning hozirgi holati va unga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash, ma’lumotlar bazasiga kiritilishini va ushbu ma’lumotlardan ochiq foydalanishini ta’minlash;

yagona milliy va xalqaro indikatorlar va mezonlarga muvofiq zamonaviy texnologiyalar (GAT laboratoriya, dronlar, masofadan zondlash va boshqalar)ni qo'llash yo'li bilan yer degradatsiyasi va cho'llanish, shu jumladan yerlarni tiklash, rekultivatsiya va melioratsiya tadbirlari, yaylovlardan almashlab foydalanish, yaylovlarni saqlash, fitomelioratsiyalash, qishloq xo'jalik ekinlarini almashlab ekish, o'rmonlar barpo etish, ihotazorlar barpo qilish jarayonlari monitoringini yuritish;

tuproq, agrokimyoviy, geobotanik tadqiqotlar, yerlarni inventarizatsiya qilish, aerokosmik tasvirga olish, topografik-geodezik, kartografik ishlarni o'tkazish;

ilmiy-amaliy tadbirlarni muvofiqlashtirish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

yer degradatsiyasi jarayonlarining oldini olish va qarshi kurashish bo'yicha o'quv kurs (trening)lar tashkil etish va o'tkazish;

onlayn-byulleten shaklda (yillik va choraklik) hisobotlarni taqdim etish;

b) quyidagi vazifalar yuklatiladi:

yer degradatsiyasi jarayonlarining oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish;

tuproq sho'rlanishi, tuproq ekologik holati (Soil Quality Index), geobotanik va agrokimyoviy xaritalar bo'yicha kartografik materiallarni yaratish;

yer degradatsiyasiga qarshi kurashish ishlarini olib borish uchun mas'ul bo'lgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari uchun yuqorida ko'rsatilgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni berish (yerlarni tiklash, rekultivatsiya va melioratsiya tadbirlari, yaylovlardan almashlab foydalanish, yaylovlarni saqlash, tiklash va ko'paytirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab ekish, o'rmonzorlar barpo etish, himoya o'rmon ekinlarini ekish va boshqalar);

v) quyidagilar ishchi organlari etib belgilanadi:

“O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti – yer degradatsiyasi bo‘yicha yagona elektron bazani yaratish, yer tuzish va geobotanik tadqiqotlar o‘tkazish, yerlarni inventarizatsiya qilish, aerokosmik tasvirga olish, topografik-geodezik, kartografik ishlarni o‘tkazish, yerlar monitoringini yuritish, masofadan zondlash va dronlarni qo‘llash orqali geoaxborot tizimini yangilab borish, ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha;

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar milliy instituti – tuproq monitoringi, majmuaviy tuproq va agrokimyoviy tadqiqotlarni o‘tkazish, tuproq sifati (bonitirovkasi)ni baholash, tuproq sho‘rlanishi, tuproq ekologik holati (Soil Quality Index), agrokimyoviy xaritalarni yaratish va tuproq degradatsiyasiga qarshi kurashish va oldini olishda ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha;

Qishloq xo‘jaligi yerlarini muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish boshqarmasi – yer degradatsiyasiga qarshi kurashish va oldini olish bo‘yicha mas‘ul vazirlik, idoralar, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarni nazorat qilish va bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni berish.

Adabiyotlar

1. Maxsudov X.M., Gafurova L.A. “Eroziyashunoslik” darslik. 2015 y.
2. Gafurova L.A., Saidova M “Tuproq degradatsiyasi” O‘quv qo‘llanma.
3. Internet ma’lumotlar.